

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA PAYT (VAQT) KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Xasanboyeva Maftuna Xamidulla qizi

O'zMU 4-bosqich talabasi

E-Mail: khasanboyevamaftuna27@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zoirov Alisher

O'zMU Nemis tili kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillarida payt (Zeit) konseptining lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda vaqt tushunchasining til va madaniyat bilan o'zaro bog'liqligi, uning leksik-semantik, frazeologik va kognitiv jihatlari yoritilgan. Nemis va o'zbek madaniyatlarida vaqtga bo'lgan munosabat turlicha ekanligi ko'rsatilib, ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Payt konsepti, Zeit, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, madaniyat, mentalitet, frazeologizm, kognitiv lingvistika, vaqt, milliy qadriyat.

Annotation: This article provides a comparative analysis of the linguoculturological characteristics of the concept of "time" (Zeit) in German and Uzbek languages. The study highlights the interrelation of the concept of time with language and culture, its lexical-semantic, phraseological and cognitive aspects. It demonstrates that the attitude towards time differs in German and Uzbek cultures and reveals the common and distinct features between them.

Keywords: Concept of time, Zeit, linguoculturology, comparative analysis, culture, mentality, phraseologism, cognitive linguistics, time, national values.

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, konsept tushunchasi inson tafakkuri va milliy mentalitetni til orqali ifodalashda asosiy o'rin tutadi. Lingvokulturologiyada konsept inson ongida shakllangan murakkab mental birlik sifatida qaraladi. U til orqali ifodalanib, milliy madaniyatni aks ettiradi. Payt (vaqt) konsepti ham har bir xalqning dunyoni idrok etishida markaziy ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat fizik kategoriya, balki madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Konsept tarkibida semantik, obrazli va aksiologik komponentlar mavjud bo'lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Har bir xalq vaqtini o'zining tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlari asosida idrok etadi.

Nemis madaniyatida vaqt – aniq resurs sifatida. Nemis tilida payt konsepti “Zeit” leksemi orqali ifodalanadi. Ushbu konsept nemis jamiyatida tartib-intizom, aniqlik va rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan

nemis madaniyatida vaqt “aniq resurs” sifatida qabul qilinadi. Shu sababli rejalashtirish, jadval va punktuallik ijtimoiy hayotning asosiy tamoyiliga aylangan.

O‘zbek madaniyatida vaqt – hayotiy oqim sifatida. O‘zbek tilida payt konsepti milliy mentalitet, an’anaviy hayot tarzi va diniy-falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. O‘zbek xalqining tarixiy tajribasida vaqt asosan tabiat ritmlari, qishloq xo‘jaligi faoliyati va ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Shu sababli vaqt tushunchasi ko‘proq “tabiiy oqim” va “hayotiy sabr jarayoni” sifatida idrok etiladi.

Frazeologik birliklar va ijtimoiy munosabatlar orqali har ikki xalqning vaqtga bo‘lgan munosabati farqlanadi. Nemis tilida "Zeit ist Geld" (Vaqt - pul) kabi iboralar vaqtning iqtisodiy qiymatini ko‘rsatsa, o‘zbek tilida "Vaqt hamma narsani davolaydi" kabi maqollar uning axloqiy va maishiy jihatlarini yoritadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, payt konsepti lingvokulturologiyada markaziy o‘rin tutadi. Nemis va o‘zbek tillaridagi vaqt konseptining qiyosiy tahlili milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Vaqt konsepti universal bo‘lsa-da, uning madaniy interpretatsiyasi har xil ekanligi madaniyatlararo kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maslova, V. A. Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya, 2001.
2. Stepanov, Y. S. Konstanty kultury: Slovar’ russkoy kultury. Moskva, 2004.
3. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago, 1980.
4. Humboldt, W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. Berlin, 1836.
5. Weisgerber, L. Die sprachliche Weltansicht. Düsseldorf, 1962.
6. O‘zbek tili izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.